ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Axmadaliev Adxam Abdulxamidovich

Jobborov Nuriddin Zaparvoyevich

Xodjayev Bobur Nosirovich

Turmatov Isoqjon Axmedovich

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy

markazi Namangan filiali Bolalar anesteziologiyasi bo'limi

O`SMIR BOLALARDA YELKA KAMARI VA BILAK-TIRSAK SUYAKLARI OSTEOSINTEZ AMALIYOTIDA REGIONAR ANESTEZIYANI AFZALLIKLARI

Dolzarbligi.

O`smir bolalarda yelka kamari va bilak-tirsak suyaklari shikastlanishi travmatologik jarohatlar ichida keng tarqalgan bo'lib, ko'p holatlarda jarrohlik davolashni talab qiladi. Osteosintez amaliyotlarini bajarishda analgeziya, respirator va gemodinamik ko'rsatkichlarning stabil bo'lib turishi muxim axamiyatga ega. Zamonaviy bolalar anesteziologiyasida regionar anesteziya usullarini qo'llash aynan shu natijalargi erishishda samarali usul xisoblanadi, xamda narkotiklarga bo'lgan extiyojni kamaytiradi.

Tadqiqot maqsadi.

12-18 yoshli bemorlarda yelka kamari va bilak-tirsak suyaklari osteosintez amaliyotlarida regionar anesteziyaning klinik samaradorligi va xavfsizligini baholash.

Material va usullar.

Tadqiqotga 12–18 yosh oralig'idagi 22 nafar bemor kiritildi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 14,6 ± 1,8 yil ni tashkil etdi. Jins bo'yicha taqsimlanganda 20 nafar (91%) o'g'il bola, 2 nafar (9%) qiz bola kuzatildi.

Jarohat turiga ko'ra:

- 12 nafar (54,5%) bemorda o'mrov suyagi sinishi,
- 10 nafar (45,5%) bemorda bilak va tirsak suyaklari sinishi.

Bemorlarda osteosintez amaliyoti bajarildi. Anesteziologik ta'minot sifatida yelka nerv chigalining regionar bloki qo'llanildi. Mahalliy anestetik sifatida Ropivakain 3 mg/kg ishlatildi.

Anesteziya ta'sirining boshlanishi o'rtacha 15 ± 5 minut ni tashkil etdi. Analgeziyaning o'rtacha davomiyligi 6–8 soat bo'ldi.

Operasiya vaqtida quyidagi ko'rsatkichlar monitoring qilindi:

- arterial qon bosimi
- yurak urishlar soni
- SpO2
- operasiyadan keyingi og'riq darajasi (VAS shkalasi bo'yicha)

Natijalar.
Anesteziya vaqtida bemorlarda respirator va gemodinamik ko'rsatkichlar stabil saqlandi. Arterial qon bosimi o'rtacha 122-118/82-75 mm simob ustuni, yurak urishlar soni 80–90 ta/min atrofida saqlandi. SpO2 96–99% darajasida saqlandi.

Operasiyadan keyingi davrda og'riq darajasi VAS shkalasi bo'yicha o'rtacha 2,1 ± 0,8 ball ni tashkil etdi. Qo'shimcha narkotik analgetiklarga ehtiyoj 3 nafar (13,6 %) bemorda kuzatildi.

Jiddiy anesteziologik asoratlar qayd etilmadi. Faqat 2 nafar (9,1%) bemorda blok ta'sirining kech boshlanishi kuzatildi.

Xulosa.
O`smir bolalarda yelka kamari va bilak-tirsak suyaklari shikastlanishida osteosintez amaliyotlarida umumiy anesteziyaga nisbatan regionar anesteziyani qo'llash samarali va xavfsiz anesteziologik usul hisoblanadi. U operasiya vaqtida ishonchli analgeziyani ta'minlaydi, respirator va gemodinamik ko`rsatkichlarni barqaror saqlaydi va operasiyadan keyingi davrda narkotik vositalarni ishlatilishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Kalit so'zlar: bolalar anesteziologiyasi, regionar anesteziya, yelka nerv chigali bloki, osteosintez, ropivakain.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hadzic A. Textbook of Regional Anesthesia and Acute Pain Management. – New YOrk: McGraw-Hill education, 2017.
2. Ivani G., Suresh S., ecoffey C. Pediatric Regional Anesthesia. – Oxford: Oxford University Press, 2014.
3. Butterworth J.F., Mackey D.C., Wasnick J.D. Morgan & Mikhail's Clinical Anesthesiology. – New YOrk: McGraw-Hill education, 2018.
4. Neal J.M., Barrington M.J., Brull R. The Second American Society of Regional Anesthesia evidence-Based Assessment of Ultrasound-Guided Regional Anesthesia. Regional Anesthesia and Pain Medicine. – 2016.
5. Bunatyan A.A., Mizikov V.M. Anesteziologiya i reanimatologiya. – Moskva: GEOTAR-Media, 2017.
6. Kulikov A.V., Safin R.M. Regionarnaya anesteziya v sovremennoy anesteziologii. – Moskva: Medisina, 2018.
7. Mixelson V.A., Stepanenko S.M. Detskaya anesteziologiya i reanimatologiya. – Moskva: Medisina, 2016.
8. Lebedeva R.N., Nikolaev L.A. Regionarnaya anesteziya v travmatologii i ortopedii. – Sankt-Peterburg, 2019.
9. Aripov U.A., Tursunov SH.T. Bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi asoslari. – Toshkent, 2018.
10. Yuldashev B.M., Abdullaev SH.SH. Anesteziologiya va reanimatologiya. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.